

Termiz shahrida serjant R.Narziev sharafiga byust o'rnatildi



Termiz shahrida serjant R.Narziev sharafiga byust o'rnatildi

Bugun, Termiz shahridagi 7-umumta'lim maktabida xizmat burchini ado etish chog'ida mardlarcha halok bo'lgan Ruslan Narziev sharafiga byust o'rnatildi.

Qahramon tahlil olgan maktabda tashkil etilgan tadbirda shahar hokimining o'rinnbosari K.Ashurov, shahar xalq ta'llimi bo'limi mudiri, marhumning oila a'zolari va safdoshlari, faxriy xarbiylar, maktab o'qituvchilari hamda o'quvchilari ishtirok etishdi. Marosim ochilishida qahramonning yoshligi, o'smirligi, uning orzu va intilishlari, ko'rsatgan jasorati bilan bog'liq xotiralar yodga olindi.

Ruslan Narziev 1976 yilda Termiz shahrida tug'ilgan. 1984-1992-yillarda 7-umumiy o'rta ta'llim maktabida o'qib, ushbu maktabni a'lo baxolarga tamomlagan.

1994-1995-yillarda Termiz avtomobil maktabida o'qidi. Yengil atletika sport turining yugurish va uzunlikka sakrash bo'yicha o'tkazilgan musobaqalarda faxrli o'rinnlarni qo'lga kiritgan.

2000 yil 28 avgustda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi chegaraoldi hududlariga suqilib kirmoqchi bo'lgan jangari to'dalarini qidirish va ularni yo'q qilish

ishlarini olib borayotgan vaqtida sarhadlarimiz himoyasi va yurt tinchligi yo'lida ko'ksini qalqon qilib, qahramonlarcha halok bo'ladi.

Byust ochilishiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda shahar hokimining o'rribosari K.Ashurov so'zga chiqib, R.Narzievning byusti ushbu maktabda tahsil oluvchi navqiron avlod vakillari uchun Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lidagi qahramonlik, mardlik va jasurlik namunasi bo'lib xizmat qilishini ta'kidladi.